

## ТА'ЛИМ MAZMUNINI O'ZLASHTIRISH JARAYONINI XUSUSIYLASHTIRISH VA TABAQALASHTIRISH

*Abduyeva Sitorabonu Savriddin qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ma'lum bir yo'nalish bo'yicha o'quvchi yoki mutaxassis tayyorlanayotganida uning bir necha tur xillarini tayyorlash imkoniyatini ko'zda tutuvchi modul o'quv rejalarini tuzishni ko'zda tutsa, ikkinchidan umumpedagogik va maxsus predmetlari mazmunini tabaqalashtirish, rivojlanish texnologiyalarini hisobga oladi. Shuning uchun o'quv predmetlarning ma'nosi turli yo'nalishdagi o'quvchi-talabalar uchun turlicha tanlanadi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, o'quv dastur, o'quv reja, DTS, pedagogika

Umumiy va maxsus tayyorgarlik mazmuni o'quvchi-talabaning malakaviy tavsifnomasiga, kasbning xususiyatlariga bog'liqligi. Bo'lg'usi jismoniy tarbiya va sport pedagog-mutaxassislarning umumiy va maxsus tayyorgarligining mazmuni bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlashni o'z ichiga oladi.

Ta'lim mazmuni quyidagi davlat xujjatlari va rasmiy hujjatlarda o'z aksini topadi:

Davlat ta'lim standartlari ta'limning zarur, yetarli darajasi va o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan, muayyan o'quv muassasaning bitiruvchisiga asosiy davlat talablarini belgilab beradi. Ta'lim mazmunining zaruriy o'zagi bo'lmish davlat ta'lim standarti vositasida mamlakatimiz hududidagi barcha o'quv muassasalarida ta'limning barqaror darajasini taminlash qonuni amalga oshiriladi, har bir ta'lim zinaga bitiruvchilar malakasiga oid talablar qo'yiladi, o'quv yuklamalari bir tartibda, me'yorga keltiriladi, o'quvchi-talabalarining bilim-malakalarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Davlat ta'lim standarti talablariga binoan o'quvchi-talabalar bilimlarni chuqurroq egallash maqsadida, ya'ni keng, chuqur bilim olish va yuqori reyting ballini to'plash huquqiga ega. Bunda ta'lim oluvchi o'zining intilishlari, qiziqish va xohishi asosida, qobiliyati hamda imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, o'zi uchun eng maqbul yo'lni ongli va mustaqil ravishda tanlash imkoniga ega bo'ladi. Lekin o'quv predmetni o'rganish standartda belgilangan meyoridan past bo'lmasligi darkor. Davlat ta'lim standartlari ta'lim-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari (o'quv muassasa, o'qituvchilar va o'quvchi-talabalar) uchun umumiy yoki kasbiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablarning ochiq bo'lishini nazarda tutadi va shunga qiziquvchan shaxslarga oldindan malum qilinishini davlat ta'lim boshqaruvchi idoralardan so'raydi.

Davlatimiz talablariga muvofiq umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limining davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy

ta'limining tarmoqli standartlari – malaka yoki kasb talablariga mos ravishda kasbiy tavsifnoma asosida muayyan tayyorlov yo'nalishi, malaka yoki kasb-hunar bo'yicha ta'lim mazmunining zarur va yetarli hajmi va maqsadi, o'quv yuklamalari hajmini aniqlovchi hamda ta'lim sifatining standart talablariga muvofiqligini ta'minlovchi meyoriy hujjatdir. Ta'lim standartlashtirishning maqsad va vazifalari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limning yuksak sifatli talablariga javob beruvchi barkamol avlod o'stirish, yuksak malakali kadrlarni tayyorlash, sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, kadrlar tayyorlash sifati va ta'lim faoliyatini baholashning mezonlari va tartibini belgilash, shuningdek, kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini taminlashdan iborat.

Ta'lim mazmuni ta'lim jarayonida o'zgacha jarayon elementlari bilan bilvosita bog'liq bo'lib o'quv-dasturiy hujjatlar: o'quv rejasi, o'quv dasturi, darslik, o'quv qo'llanmalari shaklida mavjud bo'ladi. O'quv-dasturiy hujjatlarni tuzish, belgilash o'quv-tarbiya jarayonining pedagogik va uslubiy nazariya bilan bog'laydigan ta'lim-tarbiya tayanchi hisoblanadi. Ta'lim mazmunini tanlash hozirgi bosqichma-bosqich o'qishni tashkil qilish sharoitida o'quv-dasturiy hujjatlarni yaratish alohida ahamiyatga ega, chunki bu yerda har qaysi alohida olingan yo'nalishga (umumiy o'rta maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurtining bakalavriat va magistraturasi) alohida-alohida tuziladi.

O'quv reja ham davlat hujjati hisoblanadi. Unda barcha ta'lim muassasalari tayanch toptiradi, so'zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinf va guruhlar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatiladi. Bu hujjat o'quv muassasaning yagona o'quv rejasi hisoblanib, u xalq ta'limi yoki oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alohida aniq bir fanning o'quv rejasi - shu fanni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatidir. O'quv rejasida ayrim aniq, tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha o'quvchilarning qiziqishi va xohishlarini qoniqtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladigan fakultativ mashg'ulotlar uchun o'quv soatlari ajartilgan bo'ladi.

O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi:

1. O'quv-tarbiya ishining maqsadi, o'quvchi-talabalarga aniq ilmiy bilim berish, olgan bilimlarini ko'nikma-malakaga aylantirib, uni hayotda qo'llay olishga o'rgatish.
2. O'quvchi-talabalarga bilim berish yoshiga (kasbiy yo'nalishiga) qarab tizimga solinadi va davlat qonun-qoidalariga asoslanadi:
  - a) Boshlang'ich ta'lim- I-IV sinflar;
  - b) Umumiy o'rta ta'lim - V-IX sinflar;
  - v) O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari;
  - g) Oliy ta'lim muassasalari - oliy maktab, institut, universitet, akademiyalari.

O'quv dastur muayyan bir fandan ta'lim tayyorgarligiga yo'naltirilgan asosiy mazmunini aniqlovchi mavzular va boshqa hujjatlar to'plami. O'quv dastur umumiy o'rta maktab va akademik litseydagi muayyan bir fandan ta'lim tayyorgarligiga, kasb-hunar kolleji va oliy o'quv yurti bitiruvchisiga egallagan kasbi bo'yicha ishni malakali bajarish imkonini berish hajmidagi ijtimoiy, gumanitar, umumkasbiy va maxsus fanlar mazmunini aks ettiradi. Dasturlarda o'quvchi-talabalarni tayyorlash sifati, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash, ularning bilimi va malakasi darajasini baholash tartibi, ta'lim jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalari bilan taminlash, ta'lim darajasini nazorat qilish, meyor va talablarni belgilash, kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim va fanning samarali integratsiyasini taminlash, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni, samarali shakl va usullarini belgilovchi meyoriy asos bo'lib yaratilgan, joriy etishga mo'ljallangan.

O'quv dasturi - har bir alohida fan uchun tuziladi. Dastur o'quv rejasiga asoslanadi. Fanning maqsadidan, o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan soat va bilim hajmi uning tizimi mavjud jamiyatning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini o'zida aks ettiradigan davlat hujjatidir.

O'quv dasturida alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda fanning mazmuni, mavzu ketma-ketligi ikkinchi mavzu birinchini to'ldirishi, izchillik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi. O'quv dasturini shu fan bo'yicha o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar kichik mavzularda ifodalanib, mavzu maqsadi qisqacha izohlanadi.

Fanning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda yo'nalishlari ajratiladi. Ular boblarga bo'linadi. Boblar katta-katta mavzularga, katta mavzular esa kichik mavzularga bo'linib, shu mavzu yuzasidan o'quvchi qanaqa bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi lozim bo'lsa, shu qisqacha ifodalanib beriladi. O'quv dasturining o'zini amal qilinishi kerak bo'lgan qoidalari mavjud.

1. Dasturni aniq bir g'oyaga asoslanganligi. Mustaqil jamiyatimiz taraqqiyotining tamoyillariga asoslangan holda isloh qilingan har bir sohasidagi fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar qirralaridagi erishilgan yutuqlar darajasini ilmiy asosda aks ettirishi lozim. Dastur uzoqni ko'ra bilish qoidalariga asoslanadi.

2. Dastur ilmiyligi. Har bir ta'lim va tarbiya g'oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida kiritiladi.

3. O'quv dasturi anik mazmun va mantiq g'oyalarini o'zida aks ettirilganligi. Dasturda fanning maqsad va vazifalari, undagi bilim asoslari misollar va masalalar orqali o'rgatiladi. Aks holda o'rgatilayotgan bilim asoslarini nazariy jihatdan tushunish qiyin bo'ladi.

4. Nazariya bilan amaliyotning birligi. Talabalar nazariy olgan bilimlarini, amalda qoʻllay olish koʻnikmasini shakllantirishi nazarda tutiladi.

6. Oʻquv dasturi aniq bir fan va muayyan taʼlim yoʻnalishiga qaratilganligi. Davlat tomonidan tasdiqlangan reja asosida umumiy oʻrta maktab, litsey, kollej, oliy oʻquv yurtlarning bakalavriat va magistraturalarga (bu fan asosiy, kasbiy yoki qoʻshimcha boʻlganini inobatga olib) alohida-alohida tuziladi.

### Adabiyotlar

1. Abdueva S. THE STUDY OF PHYSICAL CULTURE IN CENTRAL ASIA IN THE 16th AND 18th CENTURIES AS A TOPICAL ISSUE //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

2. Abdueva S. When planning the training of handball teams of university students, take into account the functional status of athletes by their temperament types //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

3. Abdueva S. Psychological aspects of training young handball players //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

4. Abdueva S. CHARACTERISTICS OF HEALTH STRENGTHENING //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

5. Abdueva S. AGE-SPECIFIC DYNAMICS OF ATTACK AND DEFENSE RESPONSE SPEED IN HANDBALL PLAYERS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

6. Karomatovich I. A., Navruzovna S. G. Technical and Tactical Training in Training Young Players //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 132-136.

7. Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL FEATURES OF SPORTS ACTIVITIES OF HANDBALL PLAYERS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 30-34..

8. Karomatovich I. A. et al. Assessment of Offensive and Defensive Technical-Tactical Actions of Handball Players in the Competition //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 112-116.

9. Karomatovich I. A. Conducting Sports Holidays in Pre-School and Primary Educational Institutions //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 153-157.

10. Fazliddinov F. Optimization of Football Workers' Training //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

11. Fazliddinov F. Types of competition loads in football //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

13. Rasulovna S. N. Ways to Improve the Efficiency of Technical and Tactical Actions Performed by Skilled Players during the Competition //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 196-206.

14. Собирова М. Р., Собирова Н. Р. ПСИХОЛОГИЯ ЗДОРОВЬЯ: ПОНЯТИЯ И ТЕОРИЯ //Психология XXI столетия. – С. 173-175.

15. Rasulovna S. N., Hamzayevich I. S. JISMONIY TARBIYA–SOG‘LOM JAMIYAT POYDEVORI: 10.53885/edinres. 2022.32. 34.107 Sabirova Nasiba Rasulovna Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrası o ‘qituvchisi Ismoilov Shahzod Hamzayevich Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 854-856.

16. Rasulovna S. N., Nusratilloevich Y. J. Possibilities of using the tools used in teaching short-distance running techniques //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 210-222.

17 Asqarovich R. A. YOSH GANDBOLCHILARDA KUZATISH VA DIQQATNI RIVOJLANTIRISH //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 148-153.

18. Rustamov A. A. Development Chronology of Three-Level Sports Competitions in the System of Continuous Education in Uzbekistan //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 34-39.

19. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. P: 486-492. DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01410. X.

20. УР Хайдаров Обоснование влияния правильной постановки стопы на увеличение скорости бега: УР Хайдаров, АУ Эргашев, РХ Кадиров //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1. – С. 65-74.

21. Хайдаров У. Р. ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ОБОСНОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ СКОРОСТНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СПРИНТЕРОВ УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНОЙ ГРУППЫ: 10.53885/edinres. 2021.59. 33.029 Хайдаров Улугбек Рустамович Магистрант Бухарского государственного университета Научный руководитель: Кадиров Рашид Хамидович Профессор кафедры Теории и методики физической культуры п. н. Бухарского государственного университета //Научно-практическая конференция. – 2021.

22. Rasulovna S. N., Rasulovna S. M. Advantages of Using Action Games in Teaching the Sport of Basketball //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 44-48.

23. Ixomovich M. F. FUTBOL O'YINIDA TO'P BILAN HARAKAT QILISH TEXNIKASI VA TAKTIKASINI ISHLAB CHIQUISH ASOSLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т.

17. – №. 3. – С. 88-91.

24. Ikhomovich M. F. THE BASICS OF DEVELOPING TECHNIQUES AND TACTICS OF MOVING WITH THE BALL IN A FOOTBALL GAME // ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 17. – №. 3. – С. 84-87.

25. Ikhomovich M. F. FEATURES OF THE PROCESS OF TRAINING YOUNG PLAYERS IN BEGINNER TRAINING GROUPS // ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 17. – №. 3. – С. 97-101.

26. Ikhomovich M. F. YOSH FUTBOLCHILARNI TEXNIK VA TAKTIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI // INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 97-102.

27. Фатуллаева М. А., Дустов Б. А. МОТИВАЦИЯ СТУДЕНТОВ К СПОРТИВНЫМ ЗАНЯТИЯМ В РАМКАХ ЗАНЯТИЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ // Физическая культура. Рекреация. Спорт. – 2022. – С. 504-511.

28. Фатуллаева М. А. СПЕЦИФИКА ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ, ВЫПОЛНЯЕМЫХ ПРЫЖКОМ, В ПРОЦЕССЕ ИГРЫ В ВОЛЕЙБОЛ // Физическая культура. Рекреация. Спорт. – 2022. – С. 499-503.